



THE IMPORTANCE OF MARKSMANSHIP TRAINING IN DEVELOPING THE TACTICAL READINESS OF FUTURE SNORERS

A.R. Ibrokhimov

Specialized Training Center of the National Guard of the Republic
of Uzbekistan

Senior Instructor of the Weapons and Shooting Course Lieutenant
Colonel

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17084540>

ARTICLE INFO

Received: 03rd September 2025

Accepted: 08th September 2025

Online: 09th September 2025

KEYWORDS

Tactics, sergeant, training,
shooting, safety, movement,
complex, principle, exercise,
group, urbanization, period.

ABSTRACT

This article presents a practical and scientific analysis of the importance of marksmanship training in the development of tactical training for future sergeants. To ensure the safety of actions during an assault, the above-mentioned tactical actions are carried out, and issues related to complex exercises in the disciplines of tactics (special tactics) and marksmanship training are also considered, with the aim of developing coordinated, precise and courageous actions by units.

ЗНАЧЕНИЕ СТРЕЛКОВОЙ ПОДГОТОВКИ В РАЗВИТИИ ТАКТИЧЕСКОЙ ГОТОВНОСТИ БУДУЩИХ СЕРЖАНТОВ

А.Р. Иброхимов

Специализированный учебный центр Национальной гвардии Республики
Узбекистан. Старший преподаватель курса огневой подготовки и стрельбы
подполковник

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17084540>

ARTICLE INFO

Received: 03rd September 2025

Accepted: 08th September 2025

Online: 09th September 2025

KEYWORDS

Тактика, сержант,
подготовка, стрельба,
безопасность, передвижение,
комплекс, принцип,
упражнение, группа,
урбанизация, точка.

ABSTRACT

В данной статье представлен практический и научный анализ значения стрелковой подготовки в развитии тактической подготовки будущих сержантов. Для обеспечения безопасности действий при штурме проводятся вышеуказанные тактические действия, а также рассматриваются вопросы, связанные с комплексными упражнениями по дисциплинам тактики (специальной тактики) и стрелковой подготовки, с целью воспитания слаженных, точных и смелых действий подразделений.

BO'LAJAK SERJANTLAR TAKTIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O'Q OTISH TAYYORGARLIGINING AHAMIYATI

A.R. Ibroximov

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o'quv markazi



Qurol-aslah va o'q otish sikli sikli katta o'qituvchisi podpolkovnik
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17084540>

ARTICLE INFO

Received: 03rd September 2025
Accepted: 08th September 2025
Online: 09th September 2025

KEYWORDS

Taktika, serjant, tayyorgarlik, o'q otish, xavfsizlik, harakat, kompleks, tamoyil, mashq, guruh, urbanizatsiya, punkt.

ABSTRACT

Mazkur maqolada bo'lajak serjantlar taktik tayyorgarligini rivojlantirishda o'q otish tayyorgarligining ahamiyati amaliy-ilmiy tahlil qilingan. Shturm vaqti biron-bir harakatni amalga oshirishda xavfsizlikni ta'minlash bo'linmalarining muvofiqlashgan, aniq va dadil harakatlarga o'rgatish uchun yuqoridagi kabi taktik harakatlarni amalga oshirish bilan, taktika (maxsus taktika) va o'q otish tayyorgarligi fanlari bo'yicha kompleks mashqlarga oid masalalar o'rganilgan.

Kirish (Introduction). 1990 yillar oxiriga kelib, fan-texnika taraqqiyoti natijasida aksariyat harbiy mutaxassislar kelajakdagi urushlar asosan "yuqori texnologiyalar 11 operatsiyalari" ko'rinishida, yani tomonlar qo'shinlarining bevosita to'qnashuvlarisiz, asosan aniq nuqtaga uruvchi qurollarni keng qo'llagan holda, havodagi to'liq ustunlikni qo'lga olib, manyovrlar o'tkazish orqali olib borilishi haqida fikrlar bildira boshladilar. Ayniqsa, AQSh boshchiligidagi kolitsiya kuchlarining 1991-2003 yillarda Fors ko'rfazida olib borgan urushlaridan so'ng bunday fikr bildiruvchi mutaxassislarning soni yanada ko'paydi.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** AQSh boshchiligidagi koalitsiya kuchlarining Suriya va Iroq hududida, 2014 yildan boshlab esa Rossiya Federatsiyasining Suriyada terrorchilarga qarshi olib borgan operatsiyalari tahlili natijasida yuqorida ta'riflangan, bo'linmalarining bevosita to'qnashuvsiz olib boriladigan jangovar harakatlar haqidagi qarashlarga haqiqatga to'g'ri kelmasligi ko'rinishida boshladi va yana bir bor kurashayotgan tomonlar harbiy xizmatchilarining bevosita to'qnashuvi, dushmanga talafot yetkazish maqsadida o'q otar qurollardan o't ochgan holda taktik harakatlarni amalga oshirishsiz harbiy (qurolli) mojarodagi ko'zlangan maqsadlarga erishish qiyinligi amalda isbotlandi.

Shu bilan birga dunyoda urbanizatsiya jarayonining tezlashishi, davlatlar qurolli kuchlarining jangovar harakatlar olib borishida tinch aholi orasida talafotlarning minimallashtirish yo'lidagi harakatlari kabi omillar esa aksariyat jangovar harakatlarning shaharlarga, aholi punktlariga ko'chirdi. Shuningdek, terrorchilik tashkilotlari misli ko'rilmagan darajada kuchayib, ularning qurolli tuzilmalari avvalgi tarqoq, unchalik yaxshi ta'minlanmagan isyonkorlardan zamonaviy qurol-aslahalar bilan ta'minlangan, yaxshi o'qitilgan hamda zamonaviy boshqaruv tizimiga ega bo'lgan kuchlarga aylandi. Ushbu guruhlariga qarshi kurashish, ayniqsa shahar sharoitlarida qiyin kechishini yuqorida ta'kidlangan qurolli mojarolar tajribalari ko'rsatib berdi.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Adabiyotlarda shahar jangining quyidagi asosiy xususiyatlari ko'rsatib o'tishgan:



shahar jangida bo'linmalarning asosan alohida, asosiy kuchlardan uzilgan holda jang olib borishiga to'g'ri kelgani sababli muhim qarorlarni tezkorlik bilan qabul qilishga qodir bo'lgan kichik komandirlarning rolining ortishi;

binolarni "tozalash"da 10 ta harbiy xizmatchidan faqatgina 3 tasi qurol qo'llash imkoniyatiga ega bo'lgani sababli jangda har bir askarning vazifasini to'g'ri taqsimlash, aniq hamkorlik va o'zaro yordam ko'rsatish talab etilishi;

tinch aholining mavjudligi, dushmanga ulardan "tirik qalqon" sifatida foydalanish bilan birga, ular orasida niqoblanishga ham imkoniyat yaratadi;

shahar janglari piyodalar va zirhli texnikalar o'rtasidagi hamkorlikni yuqori darajada tashkil etishni talab etadi;

jang olib borish makonining "uch o'lchamliligi", ya'ni old, yon taraflar bilan bir vaqtda yuqoriga qarata ham o't ochish zarurligi, kuzatish maydoni va o't ochish sektorining shahar inshootlari bilan cheklanganligi;

shahar sharoitlaridagi jangovar to'qnashuvlarda yana bir jiddiy muammo o'z shaxsiy tarkibi va dushmani tezkorlik bilan ajratib olishdir;

shaharlar mina-portlovchi to'siqlarni, minalar maydonlarini, "mina-tuzoq"larni o'rnatishga qulayligi ham shaxsiy tarkibdan, ham jangovar texnikalardan katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari shaxsiy tarkib yong'inlar, binolarni yoki ularning bir qismini qulashi va boshqalardan ham talafot ko'rish mumkin;

shahar sharoitidagi jangovar vazifani bajarishda ishtirok etayotgan har bir harbiy xizmatchining yonida gazniqob bo'lishi kerak. Chunki zamonaviy qurilish materiallarining yonishidan chiqayotgan gaz kimyoviy qurolga tenglasha oladi;

o't ochish masofasi changlar, tutunlar, o'q-dorilarning portlashi, zich joylashgan binolar ta'sirida qisqarib, odatda 100-200 metrni tashkil etadi.

Zamonaviy sharoitlarda terrorchi tashkilotlar jangari guruhlariga qarshi kurashda, ayniqsa tinch aholi mavjud bo'lgan shahar sharoitida olib boriladigan janglarda oldinga qo'yilgan jangovar vazifaning muvaffaqiyati taqdirini asosan 7-10 kishigacha bo'lgan, yuqori jangovar tayyorgarlikka ega, bir-biri bilan yaqin hamkorlikda, o'zaro panalab harakatlana oladigan, zamonaviy qurol-yarog' va aloqa vositalari bilan ta'minlangan, mahoratli komandir boshqarayotgan kichik bo'linmalar hal qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida bunday kichik bo'linmalarga jangovar guruhlarini va uning bir qismi - kichik guruhlarini (podgruppa) misol qilish mumkin. Shu sababli harbiy ta'limotni olib borishda guruhlarini o'qitish, guruh komandiri va kichik komandirlarning o'z bo'linmasini ishonchli boshqara olishga o'rgatish, ularda shu yo'nalishda amaliy ko'nikma hosil qilish, shu bilan birga bo'linmadagi mavjud har bir lavozimdagi harbiy xizmatchi boshqa lavozimdagi o'rtog'ini almashtirib, uning vazifasini bekamu-ko'st bajara oladigan bo'linmani shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etishi zarur.

Bo'linmalarni jangovar sharoitlarda harakatlanishga tayyorlash asosan taktika va o'q otish tayyorgarligi mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. O'zbekiston sharoitida taktika ikki qismga - umumiy taktika va maxsus taktik tayyorgarlikka bo'linib o'qitiladi.

Taktika (maxsus taktika), o'q otish tayyorgarligi fanlarini o'qitishda bir qator o'ziga xosliklar yuzaga kelgan bo'lib, ular quyidagilarda ko'rinadi:



har bir fan bo'yicha mashg'ulotlar alohida dastur va rejalar asosida, alohida o'qituvchilar tomonidan olib boriladi;

fanlarni bir-biriga bog'lash murakkab, chunki ular boshqa-boshqa kafedralarda, alohida semestrlarda olib boriladi;

aksariyat harbiy xizmatchilarda taktik tayyorgarlik asosan umumqo'shin jangini, maxsus taktik tayyorgarlik ommaviy tartibsizliklarni bostirish hamda garovdagilarni ozod etishni, o'q otish tayyorgarligi qurol-aslahalar va ulardan o't ochishni o'rgatadi degan fikr shakllangan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yuqoridagi kabi holatlar, fikrlar bo'linmalarda ham mavjud bo'lib, kichik bo'linmalarni zamonaviy talablarga mos tayyorlash uchun bunday qarashlardan voz kechish, xorijiy davlatlar armiyalarining jangovar tajribalarini chuqur o'rgangan holda tizimga katta o'zgarishlar kiritish, maqsadga muvofiq.

Aholi punktlaridagi jangovar harakatlarni kichik jangovar guruhlar tarkibida olib boriladi. Bu dushman kuchi son jihatdan ustun bo'lsa ham imkoniyatlarni tenglashtirishga sharoit yaratadi. Kichik bo'linmalar hech qachon asosiy kuchlardan uzoqlashib ketmasliklari kerak. Bunda ular kesib qo'yilishi va yo'q qilinishi mumkin. Eng maqbul distantsiya - bu o't bilan qo'llab-quvvatlash mumkin bo'lgan masofadir.

O't bilan qo'llab-quvvatlash, o't ochib panalash, to'siq o't ochish - shahar sharoitlarida jang olib borishning almashtirib bo'lmas usullari hisoblanadi.

Aholi punktlarida harakatlanishning asosiy tamoyili - shturmchi guruhlarini va har bir jangchini alohida o't ochib panalab harakatlanishdir. Qo'lga kiritish zarur bo'lgan obyekt (bino)ga yaqinlashish uchun ko'cha, uzun yoki keng hovli yoki boshqa ochiq hudud bo'yab harakatlanishga to'g'ri keladi.

Shturmda davomida hamkorlikni, o'zaro nazorat va o'zaro yordamni samaraliroq olib borish, bo'linmani boshqarishni yengillashtirish uchun guruh juftliklar yoki uchliklarga bo'linadi. Juftliklar yoki uchliklardagi (keyingi o'rinlarda juftliklar) jangchilar doimo sherigi to'g'ridan-to'g'ri 14 ko'rinadigan va u bilan ovoz yoki ishoralar yordamida aloqa qilish mumkin bo'lgan masofada, bir-biri bilan yaqin hamkorlikda harakatlanadi. Ular "har kim har kimga javob beradi" tamoyili bo'yicha muntazam ravishda o'z sheriklarini nazorat qilib turishlari kerak.

Jangovar juftliklarning samarali harakatlanishi va bir-birini yuqori darajada tushunishlari uchun ularni oldindan, kundalik mashqlar va jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari jarayonida shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda har bir harbiy xizmatchida nafaqat do'stona munosabatlar vujudga keladi, shu bilan birga o'rtog'ining harakatlarini sezish va tushunish hisi uyg'onadi.

Birgalikdagi mashqlarda juftliklar o'rtasida tajriba almashiniladi, harakatlanish taktikasi ishlab chiqiladi va hattoki o'z muloqot tili shakllanadi. Bunday tizim, masalan, fransuz legionida yo'lga qo'yilgan. Pulemyotchilar, granatomyotchilar, merganlar va boshqalar ham shunday juftliklarda harakatlanishadi.

Shuningdek, juftliklar o'rtasida ham hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shturm vaqtida biron-bir harakatni amalga oshirishda xavfsizlikni ta'minlash uchun o'zaro



panalash tashkillashtiriladi. Birinchi guruh panalaydi, ikkinchisi manyovr amalga oshiradi va aksincha.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bo'linmalarining muvofiqlashgan, aniq va dadil harakatlarga o'rgatish uchun yuqoridagi kabi taktik harakatlarni amalga oshirish bilan, taktika (maxsus taktika) va o'q otish tayyorgarligi fanlari bo'yicha kompleks mashqlar, buning uchun esa innovatsion yondashuvlar asosida tayyorlangan o'quv-moddiy baza yordamida erishish mumkin.

References:

1. Временное наставление по организации и ведению боя в городе (населенном пункте). O'R Mudofaa Vazirligi. T. Sharq, 2015. 177 b.
2. Иванов С. Проблемы и особенности борьбы с террористической группировкой "Исламское государство" // Зарубежное военное обозрение. 2016. №6.
3. Киселёв В. Некоторые итоги боевых действий в Сирии // Армейский сборник. 2016 №7.
4. Троценко К.А. Ударная и огневая тактика – от безыдейности к развитым огневым основам боя и операции. Журнал «Военная мысль», 2018 г. № 9,10,11.